



XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA PUL ISLOHOTI

Berdiyeva Nilufar Erkinovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm Xalq Sovet Respublikasida 1920–1924-yillar davomida amalga oshirilgan pul islohoti jarayoni tahlil qilinadi. Islohotning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari, siyosiy sharoitlari, amalga oshirilgan choralar va ularning aholiga ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, bu jarayon Markaziy Osiyo va butun Sovet hududidagi pul siyosatining bir qismi sifatida o'rganiladi. Islohotning tarixiy ahamiyati, kamchiliklari va uzoq muddatli iqtisodiy ta'siri xolis yondashuvda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, pul islohoti, sovet pul siyosati, inflyatsiya, iqtisodiy siyosat, sovetlashtirish, 1920-yillar.

Аннотация. В статье анализируется процесс денежной реформы в Хорезмской Народной Советской Республике в 1920–1924 гг. Обсуждаются социально-экономические причины реформы, политические условия, принятые меры и их влияние на население. Этот процесс также изучается как часть денежной политики в Средней Азии и на всей советской территории. Историческое значение, недостатки и долгосрочные экономические последствия реформы рассматриваются в объективном подходе.

Ключевые слова: Хорезмская Народная Советская Республика, денежная реформа, советская денежная политика, инфляция, экономическая политика, советизация, 1920-е гг.

Abstract. This article analyzes the process of monetary reform in the Khorezm People's Soviet Republic during 1920–1924. The socio-economic reasons for the reform, political conditions, measures taken and their impact on the population are discussed. This process is also studied as part of monetary policy



in Central Asia and the entire Soviet territory. The historical significance, shortcomings and long-term economic impact of the reform are covered in an objective approach.

Keywords: *Khorezm People's Soviet Republic, monetary reform, Soviet monetary policy, inflation, economic policy, Sovietization, 1920s.*

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) 1920-yilda Xiva xonligi tugatilgach tashkil etilgan. Bu davrda butun Turkiston va Markaziy Osiyo hududida siyosiy va iqtisodiy beqarorlik hukm surar edi. Aholi orasida turli valyutalar muomalada bo'lgan: eski xonlik tangalari, Rossiya imperiyasi pullari va Sovet notiqalari (kupyuralari). Bu pul muomalasidagi betartiblik XXSR hukumati tomonidan pul islohotini zarur qildi.

Pul islohotlari – bu milliy valyutani kuchaytirish, pul birligini barqarorlashtirish va pul muomalasini boshqarish maqsadida mamlakat pul tizimini qayta tashkil etish jarayonidir. Ushbu islohotlar davlat tomonidan, iqtisodiy sharoit va siyosatga qarab, turli usullarda amalga oshiriladi. Masalan, pulning qadrsizlanishi yoki valyuta kursining o'zgarishi holatlarida pul tizimiga o'zgartirish kiritish talab etiladi.

Pul islohotlari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Deflyasiya – ortiqcha qog'oz pullarni yo'q qilish yo'li bilan pul hajmini kamaytirish.

Nullifikatsiya – eski pullarni yo'q qilib, yangilarini chiqarish.

Denominatsiya – eski pul birligini yangi, yirikroq pul belgilari bilan almashtirish.



Devalvatsiya – milliy pul birligining metall qiymati yoki valyuta kursini pasaytirish.

Revalvatsiya – milliy pul birligining qiymatini chet el valyutasiga nisbatan oshirish.

Pul islohotlari, asosan, iqtisodiyotda barqarorlik yaratish, inflyatsiyani boshqarish va xalqaro savdo uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Markaziy Osiyo hududlarida pul islohotlari ilk bor Amir Temur davrida jiddiy tus ola boshlagan. U o'z davrida mavjud bo'lgan mayda va arzon mis tangalarni muomaladan chiqarishga kirishib, o'rniga og'irroq, qimmatbaho metallardan — asosan oltin va kumushdan tayyorlangan, yirik qiymatga ega tangalarni joriy etgan. Bu yangilanish nafaqat mamlakat ichki savdosiga, balki xalqaro savdo munosabatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Amir Temurning ixtiyorida bir nechta yirik zarbxonalar bo'lgan bo'lib, ular nafaqat mahalliy, balki xorijiy bozorlarga ham sifatli tangalar yetkazib bergan. Hatto G'arbiy Eron va Ozarbayjon hududlarida Amir Temur nomi tushirilgan 120 dan ortiq turdagi oltin va kumush tangalar muomalaga kiritilgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bu esa Temuriylar davlati iqtisodiy qudratining yorqin ko'rsatkichidir.

Temuriylar sulolasining keyingi vakili Mirzo Ulug'bek 1428-yilda yana bir muhim pul islohotini amalga oshirgan. U eski mis tangalarning muomaladagi ahamiyatini yo'qqa chiqarib, ularning ishlatilishini taqiqlagan. Buning o'rniga Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruxiya, Andijon, Qarshi va Termiz kabi yirik shahar zarbxonalarida yangi dizaynga ega va yuqori sifatli tangalar ishlab chiqarila boshlangan. Islohot yakuniga yetgach, faqatgina Buxorodagi zarbxona faoliyatini davom ettirgan, qolgan zarbxonalar esa yopilgan. Bu esa pul birligini markazlashtirish va iqtisodiy nazoratni kuchaytirishga xizmat qilgan.



Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida ham pul tizimi takomillashtirilib, o'ziga xos yangiliklar kiritilgan. Ular ilgari zarb etilgan tangalarga o'zlariga xos belgi va tamg'alarni bosib, ularni qayta muomalaga chiqarish amaliyotini yo'lga qo'yganlar. Bu usul tangalarning haqiqiylikini tasdiqlash va ularni yangi hukmronlik davri bilan bog'lashga xizmat qilgan. Ayniqsa, Shayboniylar davrida "dinor" deb atalgan ko'plab mis tangalar hamda taxminan 3 gramm og'irlikdagi kumush tangalar keng miqyosda muomalaga kiritilgan. Bu tangalar hududlararo savdo va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo tarixida Amir Temurdan boshlab Shayboniylar davrigacha bo'lgan davrda pul tizimidagi islohotlar hudud iqtisodiyotining rivojlanishi, savdo aloqalarining kengayishi hamda siyosiy mustahkamlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.¹

1918–1920 yillarda Xiva xonligida ikki xonlik davri kuzatildi. Nomigagina xon bo'lgan Saidabdullaxon asl hokimiyatni boshqarmas, amalda barcha siyosiy va harbiy kuch Junaidxon qo'lida edi. Junaidxon o'z hokimiyatini xalqqa ko'rsatish maqsadida pul ham chiqargan. Bu pullar atlas matoga ishlangan bo'lib, "turma qog'oz" nomi bilan tanilgan. Keyinchalik esa Junaidxon nomi ostida qog'oz pullar ham muomalaga chiqarila boshlandi.

1920-yil 2-fevral kuni Xiva xalq inqilobi g'alaba qozongach, 11-aprelda Xiva vaqtli inqilobiy komiteti yig'ilishida pul kursini belgilash bo'yicha qaror qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra, ilgari muomalada bo'lgan 1 so'mlik "krenka" puli Xorazmning 4 so'mlik sovet puliga, "turkiston boni" esa 5 so'mlik Xorazm sovet puliga teng deb belgilandi.

¹ Yunusov Sh. Savdo va pul muomalasi tarixidan. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.



1920-yillarning boshlarida Xorazm iqtisodiyoti inqirozga uchragan edi. Ishlab chiqarish pasaydi, savdo aloqalari buzildi, inflyatsiya keskin oshdi. Bir vaqtning o'zida har xil pul birliklari (masalan, "tilla", "so'm", "bon", "rubl") birgalikda muomalada bo'lishi narxlar tizimini izdan chiqardi. Bu iqtisodiy beqarorlik siyosiy barqarorlikka ham tahdid soldi.

2000 rubllik pul birligi



1-rasm.

XIX asrning boshlaridan boshlab esa Xiva xonligida "tanga" nomi bilan tanilgan pul birligi asosiy muomalaviy vosita bo'lib xizmat qilgan. XX asrga kelib, iqtisodiy tizimda aniqlik kiritish maqsadida qat'iy ayirboshlash nisbati joriy qilindi: 1 rubl (manat) 5 tangaga teng deb belgilandi. 1919-yilda ilk bor Xiva xonligining o'z banknotlari chiqarila boshlandi. Bu banknotlarda ham tanga, ham rubl (manat)da nominal qiymatlar bir xil nisbat asosida (1:5) ko'rsatilgan.

1920-yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilinishi bilan eski tangalar va tangaviy pullar muomaladan chiqarildi. O'sha yili Respublika Nozirlar Kengashi tomonidan yangi pul belgilarini — rubllarni muomalaga chiqarish boshlab yuborildi. Bu davrda 20 rubllik tangalar, 250 va 750 rubllik qog'oz pullar



tarqatildi. Keyingi yillarda inflyatsiya ta'siri ostida pul birliklarining nominal qiymatlari keskin oshdi.

1921–1922-yillarda katta qiymatdagi tangalar — 20, 25, 100 va 500 rubl atrofida muomalaga kiritildi. Shuningdek, 1921-yil davomida turli nominaldagi banknotalar — 100, 250, 500, 1000, 2000, 5000, 10 000 va 25 000 rubl — bosilib chiqarildi. Shu yillarda, Xorazm bilan birga, Turkiston o'lkasida ham vaqtinchalik muomalaga chiqarilgan “turkbonlar” mavjud bo'lgan, biroq 1921-yilga kelib, Turkistonda pul muomalasining markazlashuvi natijasida bu qog'ozlar chiqarilishi to'xtatildi.

500 rubllik tanga



2-rasm.

1922-yilga kelib, Xorazm Respublikasining yangi bankomatlari oborotga chiqarildi. Bu yangi pullar oldingi qiymatlar bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori bo'lib, yangi 1 rubl — avvalgi 10 000 rublga tenglashtirilgan. Yangi namunadagi banknotalar 3, 5, 10 va 25 rubl ko'rinishida chiqarildi.

1923-yilda esa pul muomalasining yakuniy bosqichi amalga oshirildi. Mart oyida O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiy konferensiyasi va Moskvadagi



yig'ilishda muhim qaror qabul qilindi — Buxoro va Xiva hududlarida mahalliy pul belgilarining muomalasini to'xtatib, ularni Sovet Ittifoqining rubliga almashtirishga qaror qilindi. Almashtirish ishlari 1:1 nisbatda amalga oshirildi va shu tariqa Xorazm rubli Sovet rubliga tenglashtirildi. Pul almashtirish jarayoni 1923-yilning kuzida to'liq yakunlandi.

Ya'ni, Xiva xonligida ko'pincha kumush tangalar muomalada ishlatilgan, chunki u oltin va misga nisbatan qulayroq edi. Hatto XIX asr oxirigacha har yili bir million so'mlik kumush tangalar mahalliy ustalar tomonidan zarb qilinardi. Ammo XIX asr oxirida dunyo bo'ylab kumush qazib chiqarish ko'payib ketgani sababli uning qiymati pasayib ketdi. Natijada Xivada ham kumush tangalarning qiymati ikki baravarga tushib, bir tanga avvalgi 20 tiyindan 12 tiyin qiymatgacha arzonlashdi.

Rossiya Xiva xonligini bosib olganidan keyin ham u yerda rus pullari — Ekaterina II davridagi qog'oz pullar va kumush tangalar — uzoq vaqtgacha keng tarqalmadi. Mahalliy aholi o'zining oltin va kumush tangalariga o'rgangan bo'lib, rus qog'oz pullarini ishlatishni xohlamas edi. Bu holat chor amaldorlarini norozi qildi, shuning uchun ular rus pullarini majburan joriy qilishga kirishdilar.

Natijada, rus qog'oz pullarini mahalliy tanga va tilla pullarga almashtirib foyda ko'radigan "sarroflar" — ya'ni pul almashtiruvchi kishilar paydo bo'ldi. Bu kasbni ota-bobolaridan meros qilib olgan Quryoz va Bolta sarroflar bu sohani davom ettirganlar. Sarroflar katta kapitalga ega bo'lib, pul muomalasidagi noqulayliklardan foyda ko'rgan va Xiva hamda Rossiya savdogarlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Savdogarlar esa bu holatdan norozi bo'lib, rus hukumatiga murojaat qilib, Xiva tangalarini muomaladan chiqarib, o'rniga rus qog'oz pullarini keng yoyishni taklif qilganlar.

Shuningdek, Xorazm Xalq Sotsialistik Respublikasida iqtisodiy siyosat va xo'jalik sohasidagi islohotlar murakkab va ziddiyatli sharoitda amalga oshirildi.



Ayniqsa, soliq siyosatida Sovet Rossiyasining kuchli ta'siri sezilib, bu holat sinfiy yondashuvning yaqqol namoyon bo'lishiga olib keldi. Soliq yuki asosan savdogarlar, sudxo'rlar va yirik yer egalari zimmasiga yuklatilgan edi.

1922-yil dekabr oyida agrar sohada yagona soliq tizimi joriy etilib, soliqlarni aniq va adolatli yig'ish uchun davlat banki hamda soliq palatasi tashkil qilindi. Bu orqali fiskal tartibot mustahkamlanib, iqtisodiy faoliyatni tizimlashtirishga xizmat qildi. 1923-yil iyun oyiga kelib esa hunarmandchilik va sanoat sohasidagi soliqlar bir tizimga solinib, davlat sanoat solig'i joriy qilindi.

Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) e'lon qilinishi bilan Xorazmda bozor munosabatlari bosqichma-bosqich qayta tiklana boshladi. Bu jarayonda karvonsaroylar, sanoat korxonalari, tabiiy resurslar — ko'llar, to'qaylar ijaraga berildi. Infratuzilmani rivojlantirish maqsadida telefon aloqalari o'rnatilib, daryo kemachiligi faoliyati tiklandi. Bir necha yirik ko'priklar bunyod etildi.

Qishloq xo'jaligida esa sezilarli o'sish qayd etildi. 1921-yildagi 10 ming tanob paxta maydoni 1924-yilga kelib 85 ming tanobga yetkazildi, paxta hosildorligi esa 100 ming puddan 800 ming pudga oshdi. Umumiy ekin maydonlari 1913-yildagi darajaning 62 foizini, hosildorlik esa 70–75 foizini tashkil etdi.

Sanoat tarmog'ida esa modernizatsiya jarayoni davom etdi. 1924-yilga kelib 6 ta paxta tozalash zavodi, 10 ta g'isht zavodi, yog' zavodi, bosmaxona, elektr stansiyasi qayta ishga tushirildi. Bundan tashqari, qog'oz va shisha zavodlari qurildi. Bu sanoat ob'ektlari asosan davlat mulkiga aylantirilib, davlat sektori ustun mavqega ega bo'ldi.

Xorazm SSRda 1922-1924 yillarda amalga oshirilgan pul islohoti Sovet hokimiyati davridagi birinchi muhim iqtisodiy yangilanishlardan biri edi. Ushbu davrda, muomaladagi eski pullar, xususan Xorazmning qog'oz pullari almashtirildi. 1924 yil 14 fevralda pullar almashtirish boshlandi va 1 oylik



belgilangan muddat ichida almashtirilmagan pullar o'z qiymatini yo'qotgan deb hisoblandi. Ushbu jarayon Xiva, Urganch, Xonqa, Hozorasp, Shovot, Gurlan, Toshxovuz, Ilonli, Xo'jayli, Mang'it, Qo'ngrad kabi shaharlardagi 18 ta kassada amalga oshirildi.

1000 tinga (ming tinga) teng bo'lgan kupyura.



3-rasm.

1924 yil iyun oyiga kelib, pul birligi almashtirish jarayoni tugallandi, va deyarli barcha qadrsizlangan pullar yig'ib olindi. Xorazmning muomaladagi eski pullari miqdori 91 milliard 600 million so'mga yetdi. Shu bilan birga, bu davrda SSSRda pul birligini almashtirish jarayoni ham tugatildi va o'rniga kaznacheyskiy biletlar, kumush va mis pullar chiqarildi.

Xorazm SSRda amalga oshirilgan pul islohoti davomida oltin, kumush va mis pullar aholining qo'lida ishlatilib, keyinchalik ular markaz tomonidan yig'ib olindi. 20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlarida faqat oltin va kumush



pullarga sotiladigan tovarlar siyosati amalga oshirildi. Natijada, aholi qo'lidagi bu pullarning asosiy qismi markaz tomonidan o'zlashtirildi.

Shundan so'ng, 1947 yilda ikkinchi pul islohoti va 1961 yilda uchinchi pul islohoti amalga oshirildi. Ushbu islohotlar davomida muomaladagi pullar qiymati o'zgartirildi va yangi pul birliklariga o'tildi, masalan, 10 so'mlik pullar 1 so'm qiymatiga tenglashtirildi.

Bu tarixiy jarayonlar Xorazm SSRning iqtisodiy tizimida katta o'zgarishlar va transformatsiyalarni keltirib chiqardi.

Qo'shni Amudaryo viloyati bilan iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, Xorazm va Turkiston Respublikasi mehnatkashlari o'rtasida do'stlikni mustahkamlash masalasi asosiy e'tiborda bo'ldi. Yig'ilishda Xorazmda ilgari yuzaga kelgan nizolarning sababi chor Rossiyasining bosqinchilik siyosati ekani ochiq aytili.

Kelajakda fuqarolik majburiyatlari — ya'ni mehnat va harbiy xizmat teng ravishda taqsimlansa, o'zaro nizolarga barham berilishi mumkinligi qayd etildi. Bu tashabbus G. I. Broyda tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unda ishtirok etgan o'zbek va turkman urug' boshliqlari, oqsoqollar bu g'oyalarni to'liq qo'llab-quvvatladilar. Natijada, turkman mehnatkashlarining vakillarini ham markaziy hokimiyatga saylash zarurligi tan olindi va bu yo'nalishda amaliy harakatlar boshlab yuborildi.

Islohot natijasida muomaladagi pul birliklari qisqardi, yagona tizim shakllandi. Biroq, qishloq aholisi orasida yangi pullarga ishonchsizlik saqlanib qoldi. Savdo-sotiqda natural almashinuv davom etdi. Islohot ijobiy samara bergani holda, markazlashgan iqtisodiy nazoratning kuchayishiga ham olib keldi.²

² Xujaev A. SSSR iqtisodiy siyosati va Markaziy Osiyodagi o'zgarishlar. — Toshkent, 1990.



Xulosa qilib aytganda, Xorazm Xalq Sovet Respublikasidagi pul islohoti nafaqat iqtisodiy barqarorlikni tiklash, balki sovet hokimiyatining mustahkamlanishida muhim rol o'ynadi. Bu islohot mintaqada markazlashgan boshqaruv va yagona iqtisodiy tizimga o'tishning boshlanishi bo'ldi. Shu bilan birga, u mahalliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirganligi sababli, ba'zi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Султанов А.Х. Хорезмская Народная Советская Республика: история и современность. Ташкент, 1998.
2. Ahmedov M. O'zbekistonda moliya-iqtisod islohotlari tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2004.
3. Yunusov Sh. Savdo va pul muomalasi tarixidan. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1995.
4. Xujaev A. SSSR iqtisodiy siyosati va Markaziy Osiyodagi o'zgarishlar. – Toshkent, 1990.